XALQ DEPUTATLARI MARG'ILON SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

2023 - yil 10 - aprel VI-66-36-11-168-K/23 Marg‘ilon shahar hokimligi

“Geografik obektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qaroriga muvofiq Marg‘ilon shahriga boshqa tumanlardan o‘tgan nomsiz ko‘chalarga nom berish va nomi takroriy bo‘lgan ko‘chalarni qayta nomlash borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

“Geografik obektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktabrdagi “Geografik obektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 295-son qaroriga asosan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 yil 13 sentabr kungi “Farg‘ona viloyatining Uchko‘prik, O‘zbekiston, Dang‘ara, Qo‘shtepa, Toshloq, Farg‘ona tumanlari va Qo‘qon, Marg‘ilon, Farg‘ona shaharlari chegaralarini o‘zgartirish to‘g‘risida”gi SQ-624-IV-son qarori hamda Farg‘ona viloyati hokimining 2022-yil 17-noyabr kungi 366-01-0-F/22-son farmoyishiga asosan Qo‘shtepa, Toshloq, Farg‘ona tumanlaridan Marg‘ilon shahriga qo‘shilgan 48 ta ko‘chalar xatlovdan o‘tkazildi. Shunga ko‘ra, Marg‘ilon shahar hokimligi huzuridagi Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi tomonidan hatlov natijalariga asosan nomsiz hamda nomlari takroriy deb topilgan ko‘chalar bo‘yicha taklif tayyorlanib, Farg‘ona viloyati hokimligi huzuridagi Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasiga hamda Respublika toponimika xizmatiga “Geografik obektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi

haqida” ekspert xulosasini olish uchun yuborildi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasi tomonidan olib borilgan o‘rganish natijasiga ko‘ra, shuningdek, tegishli qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib, Marg‘ilon shahar komissiyasining geografik obektlarni qayta nomlash bo‘yicha bergan takliflari qonun talablariga muvofiq deb topilib, belgilangan tartibda ijobiy xulosalar olindi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, shuningdek, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari Marg‘ilon shahar Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qaroriga muvofiq Marg‘ilon shahriga boshqa tumanlardan o‘tgan nomsiz ko‘chalarga nom berish va nomi takroriy bo‘lgan ko‘chalarni qayta nomlash borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi Marg‘ilon shahar hokimining maslahatchisi U.Maxmudovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Marg‘ilon shahar komissiyasi tomonidan geografik ob’ektlarni qayta nomlash bo‘yicha taqdim etilgan hamda qonun talablariga muvofiq deb topilgan geografik obekt (ko‘cha) nomlari 1-ilovaga asosan tasdiqlansin, shuningdek, belgilangan tartibda davlat reestri bazasiga kiritilsin.

3. Marg‘ilon shahar hokimligi Axborot xizmati, “Marg‘ilon haqiqati” gazetasi bosh muharriri A.Mansurovga ushbu qarorni keng ommaga yetkazish tavsiya etilsin.

4. Belgilansinki, ushbu qaror ommaviy axborot vositalarida rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror bajarilishiga shahar hokimining o‘rinbosari B.Bozorov Kadastrlar palatasi Marg‘ilon shahar filiali rahbari Q.Azizovlar shaxsan mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilsin.

6. Xalq deputatlari Marg‘ilon shahar Kengashining 2023 yil 30 mart kungi VI-67-26-11-168-K/23 sonli qarori shahar Adliya bo'limi tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazilmaganligi sababli o'z kuchini yuqotgan deb hisoblansin.

7. Ushbu qaror bajarilishining nazorati Xalq deputatlari Marg‘ilon shahar Kengashining Ta’lim, sog‘likni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya bo‘yicha doimiy komissiya raisi Z.G‘ofurova hamda Marg‘ilon shahar hokimining maslahatchisi U.Maxmudovlar zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **A.Ziyavitdinov**

Xalq deputatlari Marg‘ilon shahar
Kengashining
2023 yil 10 apreldagi
VI-66-36-11-168-K/23-son qaroriga
1-ilova

Marg‘ilon shahri bo‘yicha yangi nom berilayotgan hamda qayta nomlanayotgan geografik obekt (ko‘cha)lar to‘g‘risida

MA’LUMOT

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1	Ko‘cha	Qirguli	Nomsiz (Lolazor)	Ko‘ngil	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2	Tor ko‘cha	Qirguli	Nomsiz (Lolazor 1-tor)	Ko‘ngil -1	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3	Tor ko‘cha	Qirguli	Nomsiz (Lolazor 2-tor)	Ko‘ngil -2	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Tor ko‘cha	Qirguli	Nomsiz (Ittifoq)	Nurobod-1	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5.	Tor ko‘cha	Qirguli	Nomsiz (Intizor)	Nurobod-2	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6.	Tor ko‘cha	Qirguli	Nomsiz (Intizor – 1)	Nurobod-3	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7.	Tor ko‘cha	Qirguli	Nomsiz (Navro‘z)	Nurobod-4	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8.	Tor ko‘cha	Qirguli	Nomsiz (Istirohat)	Nurobod-5	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
9.	Tor ko‘cha	Qirguli	Nomsiz (Sokinlik)	Nurobod-6	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10.	Tor ko‘cha	Qirguli	Nomsiz (Tinchlik)	Nurobod-7	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
11.	Tor ko‘cha	Qirguli	Nomsiz (Zartepa)	Nurobod-7	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
12.	Tor ko‘cha	Qirguli	Nomsiz (Shirin)	Nurobod-8	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
13.	Ko‘cha	Qirguli	Nomsiz (Nurxon)	Firdavs	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

14.	Tor ko‘cha	Qirguli	Nomsiz (Nurxon)	Firdavs	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
15.	Ko‘cha	Qirguli	Nomsiz (Tokzor)	Imom Moturidiy -18	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
16.	Ko‘cha	Qirguli	Nomsiz (Tokzor)	Imom Moturidiy -19	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
17.	Ko‘cha	Qirguli	Nomsiz (Tokzor)	Imom Moturidiy -20	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
18.	Ko‘cha	Toshloqtepa	Nomsiz (Chinroz)	Shaffof	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
19.	Tor ko‘cha	Toshloqtepa	Nomsiz (Chinroz)	Ilm nuri 1-tor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
20.	Berk ko‘cha	Toshloqtepa	Nomsiz (Chinroz)	Shaffof	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
21.	Ko‘cha	Toshloqtepa	Nomsiz (Chinroz)	Ona zamin	**Onazamin** - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
22.	Ko‘cha	Toshloqtepa	Nomsiz (Chinroz)	Ilm nuri	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
23.	Ko‘cha	Charog‘on	Nomsiz (Sherdor)	Oltin makon	**Oltinmakon** - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
24.	Tor ko‘cha	Charog‘on	Nomsiz (Sherdor)	Navnihol -1	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
25.	Tor ko‘cha	Charog‘on	Nomsiz (Sherdor)	Navnihol -2	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
26.	Tor ko‘cha	Charog‘on	Nomsiz (Sherdor)	Oltin makon -1	**Oltinmakon – 1** “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

27.	Tor ko‘cha	Charog‘on	Nomsiz (Sherdor)	Oltin makon -2	**Oltinmakon – 2** “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
28.	Tor ko‘cha	Charog‘on	Nomsiz (Sherdor)	Oltin makon -3	**Oltinmakon – 3** “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
29.	Ko‘cha	Charog‘on	Nomsiz (Iqbol)	Buloqboshi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
30.	Tor ko‘cha	Charog‘on	Nomsiz (Iqbol)	Buloqboshi -1	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
31.	Tor ko‘cha	Charog‘on	Nomsiz (Iqbol)	Buloqboshi -2	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
32.	Tor ko‘cha	Charog‘on	Nomsiz (Iqbol)	Buloqboshi -3	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
33.	Tor ko‘cha	Charog‘on	Nomsiz (Iqbol)	Buloqboshi -4	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
34.	Ko‘cha	Charog‘on	Nomsiz	G‘ozal yurt	**G‘ozal** – “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
35.	Ko‘cha	Charog‘on	Nomsiz	Meros	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
36.	Ko‘cha	Navro‘z	Nomsiz	Ko‘ksaroy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
37.	Ko‘cha	Navro‘z	Nomsiz	Nurliyo‘l	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
38.	Tor ko‘cha	Navro‘z	Nomsiz	Nurliyo‘l -1	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
39.	Tor ko‘cha	Navro‘z	Nomsiz	Nurliyo‘l -2	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
40.	Ko‘cha	Navro‘z	Nomsiz	Barqaror	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
41.	Ko‘cha	Navro‘z	Nomsiz	Hamroh	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
42.	Ko‘cha	Navro‘z	Nomsiz	Sayxun	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

43.	Ko‘cha	Yuksalish	Nomsiz	Sayqal	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
44.	Ko‘cha	Yuksalish	Nomsiz	Diydor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
45.	Ko‘cha	Yuksalish	Nomsiz	Ruxsor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
46.	Ko‘cha	Yuksalish	Nomsiz	Hurriyat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
47.	Ko‘cha	Yuksalish	Nomsiz	Xumdon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
48.	Ko‘cha	Yuksalish	Nomsiz	Toshqo‘rg‘on	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.